

SAYLOV HUQUQI – DEMOKRATIYANING MUHIM KAFOLATI

Sulaymonova Madina Qurbonovna

E-mail: sulaymonovamadina084@gmail.com

Buxoro davlat universiteti “Tarix va yuridik” fakulteti

5-2 YURS 25 guruh 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada saylov huquqining nazariy-huquqiy mohiyati, demokratik davlat tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida saylov huquqining konstitutsiyaviy asoslari, saylov tamoyillarining amalda ta’minlanishi, fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishdagi o‘rni ilmiy va amaliy jihatdan yoritiladi. Saylov huquqi orqali davlat hokimiyatining qonuniyligi ta’minlanishi, xalq irodasining ifodalanishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishi masalalari huquqiy asoslar bilan ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Saylov huquqi, demokratiya, xalq hokimiyati, saylov tizimi, konstitutsiyaviy huquq, saylov kodeksi, siyosiy huquqlar, legitimlik, fuqarolik jamiyati.*

KIRISH

Demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida saylov huquqi alohida va beqiyos ahamiyat kasb etadi. Saylov huquqi – bu shunchaki fuqarolarning ovoz berish imkoniyati emas, balki u davlat hokimiyatining xalq irodasiga asoslanishini ta’minlovchi eng muhim huquqiy mexanizmdir. Demokratiya tushunchasining mazmuni aynan xalq hokimiyatchiligi g‘oyasiga asoslanadi va bu g‘oya amalda, eng avvalo, saylovlar orqali ro‘yobga chiqariladi. Shu sababli saylov huquqi demokratik davlatning ajralmas belgisi sifatida e’tirof etiladi. Hozirgi zamonaviy huquqiy davlatlarda saylov huquqi fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquq orqali fuqarolar davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etadi, davlat organlariga o‘z vakillarini saylaydi va shu orqali davlat boshqaruvida bilvosita qatnashadi. Bu esa davlat faoliyatining xalq manfaatlariga

xizmat qilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi eng avvalo O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 128-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi, bundan ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan muddatidan ilgari saylov o'tkazish hollari mustasno. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas. Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi. Bu norma demokratik saylovlarning asosiy prinsiplarini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Bundan tashqari, saylov bilan bog'liq barcha huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi orqali tartibga solinadi. Ushbu kodeks zamonaviy demokratik talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, fuqarolarning saylov huquqlarini to'liq amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur kodeksning 3-moddasida Saylov ochiq va oshkora o'tkazilishi shuningdek, 4-moddasida Saylov kuniga qadar yoki saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadir. Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadir.

METODOLOGIYA

Saylov huquqini ilmiy jihatdan o'rganish murakkab va ko'p bosqichli metodologik yondashuvni talab qiladi, chunki ushbu institut nafaqat huquqiy norma

sifatida, balki siyosiy, ijtimoiy va institutsional hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli saylov huquqini tahlil qilishda formal-yuridik metod, tizimli-strukturaviy metod, qiyosiy-huquqiy metod hamda sotsiologik-huquqiy metodlarning kompleks qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Formal-yuridik metod yordamida saylov huquqining normativ asoslari, ya'ni Konstitutsiya va Saylov kodeksida mustahkamlangan huquqiy normalarning mazmuni, ularning yuridik kuchi va o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Tizimli-strukturaviy metod esa saylov huquqini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu yondashuv orqali saylov huquqining alohida elementlari, jumladan, saylov subyektlari, saylov jarayoni bosqichlari, saylov organlari faoliyati va saylov kafolatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Qiyosiy-huquqiy metod saylov huquqining xalqaro demokratik standartlar bilan uyg'unligini aniqlashga xizmat qiladi. Sotsiologik-huquqiy metod esa saylov huquqining amaliy samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod orqali fuqarolarning saylovdagi ishtiroki, ularning saylov tizimiga bo'lgan munosabati, saylov huquqining real hayotdagi ahamiyati o'rganiladi. Bu esa saylov huquqining nafaqat nazariy, balki amaliy institut sifatidagi ahamiyatini ochib berishga yordam beradi. Mazkur metodlarning kompleks qo'llanilishi saylov huquqining mohiyatini chuqur va har tomonlama anglash imkonini beradi hamda uning demokratik davlat tizimidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Saylov huquqining mohiyatini chuqur anglash uchun, avvalo, uning demokratik davlat tizimidagi o'rnini tushunish zarur. Saylov huquqi orqali xalq davlat hokimiyatining bevosita manbai sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga ko'ra, davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalq hisoblanadi. Bu norma saylov huquqining fundamental ahamiyatini belgilaydi, chunki aynan saylov mexanizmi orqali xalq o'z hokimiyatini amalga oshiradi. Saylov huquqi fuqarolarga ikki asosiy imkoniyatni beradi. Birinchidan, fuqaro saylovda ovoz berish orqali davlat organlarini shakllantirishda ishtirok etadi. Ikkinchidan, fuqaro o'zi ham davlat organlariga saylanish huquqiga ega bo'ladi. Bu

esa fuqarolarning davlat boshqaruvida teng asosda ishtirok etishini ta'minlaydi va jamiyatda tenglik prinsipini mustahkamlaydi. O'zbekistonda saylovlar orqali eng muhim davlat organlari shakllantiriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylov orqali saylanadi. Bu organ davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi tarmog'i hisoblanadi va mamlakatda qonunlarni qabul qiladi. Agar ushbu organ xalq tomonidan saylanmaganida, uning faoliyati demokratik legitimlikka ega bo'lmagan bo'lar edi. Shu sababli saylov huquqi davlat hokimiyatining qonuniyligini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, saylov huquqi fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Saylovlarda ishtirok etgan fuqaro davlat va jamiyat hayotiga befarq bo'lmaydi, balki o'zini ushbu jarayonning faol ishtirokchisi sifatida his qiladi. Bu esa fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda saylovlarni tashkil etish va o'tkazish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga yuklatilgan. Ushbu organ mustaqil hisoblanadi va o'z faoliyatini faqat qonun asosida amalga oshiradi. Bu esa saylovlarning adolatli va shaffof o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda saylov tizimini yanada demokratlashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Saylov jarayonlarining ochiqligi ta'minlandi, fuqarolarning saylovdagi ishtiroki uchun keng imkoniyatlar yaratildi, saylov jarayonlari xalqaro demokratik standartlarga moslashtirildi. Bu esa O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayoni izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Saylov huquqining yana bir muhim jihati shundaki, u davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi. Chunki saylangan vakillar o'z faoliyatini xalq ishonchi asosida amalga oshiradi. Agar ular o'z vazifalarini lozim darajada bajarmasa, keyingi saylovlarda xalq ularni qayta saylamasligi mumkin. Bu esa davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsam, saylov huquqi O'zbekistonda fuqarolarning eng muhim siyosiy huquqlaridan biri sifatida mustahkam huquqiy asosga ega va u amalda davlat hokimiyatining demokratik shakllanishini ta'minlaydi.

Eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning davlat boshqaruvida erkin ishtirok etish imkoniyatini kafolatlash orqali saylov huquqining umumiy konstitutsiyaviy poydevorini yaratadi. Bu esa fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlab, ularni davlat hokimiyatining passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi saylov huquqining amalda to‘liq va erkin amalga oshirilishini ta’minlaydigan maxsus huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kodeks saylov jarayonining barcha bosqichlarini aniq tartibga solib, fuqarolarning erkin tanlov qilishiga, o‘z siyosiy irodasini hech qanday bosimsiz ifoda etishiga huquqiy sharoit yaratadi. Saylovlar natijasida shakllanadigan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xalq manfaatlarini ifoda etuvchi oliy vakillik organi sifatida jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki aynan xalq tomonidan saylangan vakillar davlat siyosatini belgilashda va muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. aylov huquqining to‘liq va samarali amalga oshirilishi esa mamlakatda demokratik tamoyillarning mustahkamlanishi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchining ortishi va huquqiy davlat rivojlanishining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Saylov kodeksi” //https://lex.uz/docs/-4386848
3. O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi 1329-sonli qarori, 2024. //https://lex.uz/ru/docs/-6995026